# BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA METODIK O 'YINLARNING AHAMIYATI

https://doi.org/10.5281/zenodo.6581725

**Ro'ziyeva Azima Fazliddinovna**
Buxoro viloyati Shofirkon tumani
22-maktabning Boshlang 'ich ta'lim
**Qodirova Ozoda Olimovna**
*Buxro viloyati Shofirkon tumani*
*22-maktabning boshlang 'ich O 'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada boshlang 'ich sinflarda savod o 'rgatish davrida o 'xshash unsurli harflarni farqlashga o 'rgatadigan metod haqida so 'z boradi.*

**Kalit so 'zlar**: kreativlik,o 'yin, metod, muammo, yechim.

Barchamizga ma'lumki savod o 'rgatish davri ta'lim jarayaonining murakkab, mashaqatli va eng muhim davri hisoblanadi. Farzandlarimizni ertasi porloq, barkamol inson qilib tarbiyalashda; biz kelajak avlodning kelgusi hayotidagi tamal toshlarini qo 'yuvchi boshlang 'ich ta'lim ustozlaridan katta kuch, bilim, matonat ,sabr- bardosh, beqiyos mehr, yuksak salohiyat va ijodkorlik , kreativlik talab etiladi. Shuning uchun biz doim izlanishda, harakatda bo 'lmog 'imiz darkok.

O 'yin jarayonidan o 'qish jarayoniga endigina qadam qo 'ygan bolajonlarni maktabga bo 'lgan mehrini oshirish va shaxs bo 'lib shakllanishida bolalarga xos zamin , sharoit va muhit yaratish lozim. Ularni egallayotgan bilimlarini reyal hayot bilan bog 'lab noodatiy takrorlanmas dars jarayonlarini tashkil qilib o 'quvchilarda kreativ fikirlashni shakllantirish kerak.

O'quvchilarni qiziqtiradigan yo'llar bilan ular xohlaganidek shunday usul, yo'l o'ylab toppish kerakki har bir aytgan ma 'lumotimizni hayot bilan bog'lagan holda o'quvchining ongiga muhrlanib qolsin. An'anaviy darslarda bolalar bilishadi ustoz kirganidan biroz vaqt o'tar o'tmas yani 3-5 minutlik tashkiliy qismdan so'ng yo o'tgan darsni yoki, uyga vazifani so 'rashini. Darslarini vaqtida bajarib keladigan a'lochi o'quvchilar uchun bu muammo emas, ammo uyga vazifani bajaraolmaydigan o'tgan darsni unchalik tushinmagan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun bu katta muammo hisoblanadi. Ular darsning dastlabki daqiqalaridan zerikishni boshlashadi va ustozining birorta gapi qulog'iga ham kirmaydi. Shuning uchun darsning dastlabki daqiqalarida o'quvchiga mativatsiya beradigan

metodik, psixologik o'yinlar treninglar tashkil qilish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli rasimlarni, musiqani yoqtirishadi shundan kelib chiqib darsning mavzusiga qarab qiziqarli mashg'ulot bilan boshlash va turli metodik o'yinlar o 'tkazish mumkin.

**Harflar jonlansin" metodik o'yin**.

Bu o'yindan savod o'rgatish jarayonida foydalaniladi. O'xshash va ajratish qiyin bo'lgan harflar bir-biri bilan qiyoslanib o'rganiladi. Masalan kichik "b" va "d" hamda "p" va "q" harflari jonlantiriladi ya'ni insonlarga qiyoslanadi. Ularni egizaklar deb tasavvur qilamiz. Bu harflar bir xil faqat "b" o'ngga qaragan bo'lsa, "d" chapga qaragan . Bunda prezintatsiya va rangli rasimlar orqali yoki doskaga chizib ko'rsatib berilsa yana ham tushunarli bo'ladi.



va



**bi, bo, ba**
**bino, bola**

**di, do ,da**
**dala, danak**





.

**do-no, da-la, do'-la-na** **bi-no, bol-ta, bi-lim**

.

p va q harflari ham shu kabi qiyoslanadi.





**po, pi,pa, pu,pe** **qo, qi, qa, qu, qe**

**poy-ga, par-da** **qu-yosh, qa-lam**



